

**BOSHQARUVNING BELGILANGAN TARTIBIGA TAJOVUZ  
QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI TASHKIL  
ETISH**

*Normurodova Rushana Sevdiyor qizi*

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi*

*3-bosqich kursanti*

***Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali siz, mavzusining dolzarbligi, predmeti, obyekti, vazifalari, profilaktika inspektorlari tomonidan boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishning tushunchasi, ushbu faoliyatda jinoyatlarning barvaqt oldini olishdagi ahamiyati, bugungi kundagi holati tasvirlangan.*

***Kalit so‘zlar:** predmet, huquqbuzarliklar profilaktikasi, boshqaruvning belgilangan tartibi, tajovuz.*

«Boshqaruv» tushunchasining mazmunini tushunmasdan turib ichki ishlar organlarida boshqaruvni o‘rganishni fikrlab bo‘lmaydi. «Boshqaruv» tushunchasining ta‘rifini ishlab chiqish imkoniyati boshqaruv odamlarning har qanday guruhiiy faoliyatiga xosligi bilan belgilanadi. Boshqaruv u yoki bu ijtimoiy organizm faoliyatining obyektiv jihatdan zaruriy shart-sharoiti hisoblanadi. Boshqaruv orqali yakka shaxslarning harakatlari muvofiqlashtiriladi va birlashtiriladi, vazifalar hal qilinadi va umumiy maqsadlarga erishiladi.

«O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidangina amalga oshiriladi» .

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq: davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish; qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish; iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;

ijtimoiy sohani rivojlantirish va xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish yo'nalishlari belgilab berildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli va dolzarb islohotlar doirasida aholining tinch, osoyishta va farovon hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik, hurmat va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash va takomillashtirish yo'nalishidagi ishlarni «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli va uzviy hamkorligi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini «Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun» degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6196-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash maqsadida jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi ilg'or xorijiy va milliy tajribalar asosida ishlab chiqilgan hamda aholini har qanday tahdidlardan kafolatli himoya qilishga qaratilgan.

2022-2023-yillarda tuman ichki ishlar organlari tarkibidagi konvoy bo'linmalari bosqichma-bosqich viloyat ichki ishlar organlarining bevosita bo'ysunuvi va boshqaruviga o'tkazilib, yagona boshqaruv tizimi asosida tumanlararo xizmat o'tash tamoyiliga muvofiq qayta tashkil etiladi;

ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligi bo'linmalarining faoliyatini takomillashtirish, kompleks tahlil qilish va ularga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish;

ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatini ta'minlash va takomillashtirish, profilaktik hisob va ma'muriy nazoratdagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish;

voyaga etmaganlar va yoshlar, ayniqsa ularning uyushmagan qismi bilan manzilli tarbiyaviy va profilaktik chora-tadbirlarni samarali tashkil etish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish;

ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etishni ta'minlash, probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish, ijtimoiy moslashtirish va qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish ishlarini tashkil etish. jinoyat sodir etishga moyil, ma'muriy va probatsiya nazoratiga olingan hamda yot bo'lgan g'oyalar ta'siriga tushib adashgan shaxslarning ijtimoiylashuvi, shu jumladan ularni kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlikka keng jalb qilish orqali ushbu toifadagi fuqarolar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik;

aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlashda aholining ko'nikmalarini shakllantirish va doimiy takomillashtirib borish;

voyaga etmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, terrorism, ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish;

jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini keng joriy etish;

jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb qilinuvchi kuch va vositalarning harakatlari o'zaro izchillik va birlikka asoslanadi hamda bu boradagi faoliyatda sansalorlik va ziddiyatlarga yo'l qo'yilmaydi fuqaroviy hamda xizmat quroli va

uning o'q-dorilari muomalada bo'lishi sohasiga doir qoidalar va tartibga, ushbu sohadagi litsenziya va ruxsat berishga oid talablar hamda shartlarga rioya etilishini ta'minlaydi, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlaydi. Jamiyatda «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyilining to'laqonli va samarali joriy etilishini tashkil etadi;

oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va himoyalashga oid davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshiradi, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlaydi;

mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarida ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini mustahkamlaydi.

Profilaktika inspektori tomonidan boshqaruvining belgilangan tartibiga tajoviz qiluvchi huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishi bilan o'zaro hamkorligining zaruriy shartlarga bog'liqdir:

Profilaktika inspektori aynan shu xizmatlar bilan bog'liq va bir-birini taqozo etadigan funksiyalarni bajaradi. Bunday funksiyalar huquqiy tartibotni va qonuniylikni mustahkamlash, huquqbuzarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish, ularni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etishdan iborat yagona vazifalarga qaratilgan;

Umuman olganda, hamkorlik bu falsafiy kategoriya bo'lib, u turli xil obyektlarning bir-biriga ta'sir jarayonlarining boshqasiga ta'sir almashinuvini, birining paydo bo'lishiga boshqasining sabab bo'lishini o'zida aks ettiradi. Profilaktika inspektorining ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan o'zaro hamkorligi vazifalarining murakkabligi, ko'p qirraliligidan kelib chiqqan xolda, ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning shakllari va usullari juda keng va turli tumandir .

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) Sh.M.Mirziyoev Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir / O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. – 2017. – 8 dek.;
- 2) Sh.M.Mirziyoev Tartib-intizom va mas'uliyatni kuchaytirish, jinoyatchilikning oldini olish muhitini mustahkamlash – huquqbuzarlik profilaktikasi samaradorligining asosiy omilidir (Xalq so.,zi, 15.11.2017);
- 3) O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi: Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2022. – 504
- 5) “Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka karshi kurashish soxasidagi ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi boskichga kutarish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF 6196-sonli Farmoni
- 6) ”Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini taminlash va jinoyatchilikka karshi kurashish soxasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 5050 son karori.